



THE EMERGENCE, DEVELOPMENT, STUDY, AND TYPES OF THE TERM CONNOTATION

S.A. Kholmamatova

First-year doctoral candidate

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: connotation, denotation, emotional connotation, expressive connotation, stylistic connotation, symbolic connotation, cultural connotation, linguopoetics.

Received: 14.12.25

Accepted: 15.12.25

Published: 16.12.25

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of the concept of connotation and its role in linguistics. In addition to the lexical (denotative) meaning of a word, the additional meanings—connotative layers—are examined in terms of emotional, evaluative, stylistic, symbolic, and cultural aspects. The study offers a comparative analysis of the views of local and foreign scholars, and various forms of connotation are illustrated through examples from Uzbek literature. As a result, it is scientifically demonstrated that connotation expands the semantic potential of a word and serves as an important linguistic phenomenon revealing the interaction between language and culture.

KONNOTATSIYA TERMINNING PAYDO BO‘LISHI, RIVOJLANISHI, O‘RGANILISHI, TURLARI

S.A.Xolmamatova

1-bosqich tayanch doktoranti

Farg‘ona davlat universiteti

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: konnotatsiya, denotatsiya, emotsional konnotatsiya, ekspressiv konnotatsiya, stilistik konnotatsiya, ramziy konnotatsiya, madaniy konnotatsiya, lingvopoetika.

Annotatsiya: Ushbu maqolada konnotatsiya tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. So‘zning lug‘aviy (denotativ) ma‘nosi bilan bir qatorda, unga qo‘shiladigan qo‘shimcha ma‘nolar — konnotativ qatlamlar hissiy, baholovchi,

stilistik, ramziy va madaniy qirralarda o'rganilgan. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilingan, o'zbek adabiyotidan badiiy misollar orqali konnotatsiyaning turli ko'rinishlari yoritilgan. Natijada, konnotatsiya so'zning semantik imkoniyatlarini kengaytirib, til va madaniyatning o'zaro aloqasini ochib beruvchi muhim lingvistik hodisa ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

ПОЯВЛЕНИЕ, РАЗВИТИЕ, ИЗУЧЕНИЕ И ВИДЫ ТЕРМИНА “КОННОТАЦИЯ”

С.А. Холмаматова

Аспирант первого курса

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: коннотация, денотация, эмоциональная коннотация, экспрессивная коннотация, стилистическая коннотация, символическая коннотация, культурная коннотация, лингвопоэтика.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически анализируется понятие коннотации и её роль в лингвистике. Помимо лексического (денотативного) значения слова рассматриваются дополнительные значения — коннотативные слои, изучаемые с эмоциональной, оценочной, стилистической, символической и культурной точек зрения. В исследовании проводится сравнительный анализ взглядов местных и зарубежных учёных, а различные формы коннотации иллюстрируются примерами из узбекской литературы. В результате научно обосновано, что коннотация расширяет семантические возможности слова и является важным лингвистическим явлением, раскрывающим взаимосвязь языка и культуры.

Kirish. So'z ma'nosi lingvistik tadqiqotlarning eng muhim markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. So'zning lug'aviy ma'nosidan tashqari, unga qo'shiladigan qo'shimcha ma'nolar — konnotatsiyalar nutqiy qo'llanishni boyitib, matnga qo'shimcha ekspressivlik, emotsionallik va stilistik bo'yoq beradi. XX asr tilshunosligida R. Jakobson, V. Gak, S. Apresyan kabi olimlar konnotatsiya nazariyasiga asos solganlar. Ularning qarashlari konnotatsiyani so'zning semantik qatlami sifatida ko'rishga imkon yaratgan. O'zbek tilshunosligida ham Sh. Rahmatullayev, A. Madvaliyev, S. Otamirzayeva, N. Mahmudov kabi olimlar konnotatsion ma'noni tahlil qilib, badiiy nutqdagi o'rnini ochib berganlar.

Tadqiqot metodlari va metodologiyasi. Maqola tahlilida quyidagi metodlardan foydalanildi: Tarixiy-deskriptiv metod – konnotatsiya terminining kelib chiqishi va evolyutsiyasi manbalarga tayangan holda yoritildi; Qiyosiy-semantik metod – turli olimlarning (Jakobson, Gak, Apresyan, Suntsova va boshqalar) ta’riflari solishtirildi; Lingvopoetik tahlil – Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov kabi adiblar asarlaridan olingan misollar asosida konnotativ birliklar sharhlanib, ularning badiiy-estetik vazifasi ko’rsatildi; Madaniy-lingvistik yondashuv – konnotatsiyaning milliy qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog’liq qatlamlari aniqlab berildi

Adabiyotlar sharhi. R. Jakobson (1960) konnotatsiyani so’zning asosiy ma’nosidan tashqaridagi semantik qatlam sifatida izohlagan bo’lsa, V. Gak (1971) uni nutqiy jarayonda yuzaga keladigan baholovchi va hissiy qo’shimcha ma’no sifatida talqin etadi. S.I. Apresyan (1974) konnotatsiyani hissiy, ekspressiv, stilistik, ramziy va madaniy turlarga ajratib, nazariy asos yaratgan. M.V. Suntsova (2021) esa Apresyan nazariyasini amaliy jihatdan boyitib, rus tilidagi konnotatsiya turlarini matn asosida tadqiq qilgan. O’zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev (1982), A. Madvaliyev (2010), S. Otamirzayeva (2005), N. Mahmudov (2012) kabi olimlar konnotatsiyaning badiiy nutqdagi lingvopoetik qirralarini chuqur tahlil qilganlar. Bu manbalar konnotatsiyaning tilshunoslikda turli qirralarini ochib beradi.

Asosiy qism. Yillar davomida so’zning ma’nosini o’rganish lingvistikada chuqur tahlil etilishi kerak bo’lgan markaziy masalalardan biri sifatida ko’rilmoqda. So’zning lug’aviy (denotativ) ma’nosi bilan bir qatorda, unga qo’shiladigan qo’shimcha ma’nolar — konnotatsiyalar ham katta ilmiy qiziqish uyg’otgan va uni turli tomondan o’rganilishi kerak bo’lgan mavzulardan biridir. Konnotatsiya so’zning hissiy, ekspressiv va stilistik qirralarini namoyon etib, nutqiy qo’llanishni boyitadi.

R. Jakobson (1960) konnotatsiyani "so’zning asosiy ma’nosidan tashqaridagi qo’shimcha semantik qatlam" sifatida talqin qiladi. U bu fikrini "Linguistics and Poetics" asarida bayon etgan [1]. Bizningcha, bu ta’rif konnotatsiyaning tilshunoslikdagi ahamiyatini aniq aks ettiradi, chunki u so’zning semantik qatlamlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

V. Gak (1971) konnotatsiyani "nutqiy jarayonda yuzaga keladigan baholovchi va hissiy ma’no qo’shimchasi" deb ta’riflaydi [2]. U bu fikrini "Pragmatics and Semantics" asarida bayon etgan. Bu ta’rif konnotatsiyaning nutqiy jarayondagi rolini yoritadi, chunki u so’zning kontekstga qarab qanday o’zgarishini ko’rsatadi. Shuningdek unga boshqa ta’riflar ham beriladi. Jumladan, Konnotatsiya (lot. connotatio – “qo’shimcha ma’no”) — so’zning lug’aviy ma’nosiga qo’shib keladigan hissiy, baholovchi yoki stilistik bo’yoqlardir [3]. Denotativ ma’no narsa-hodisaning bevosita belgisini ifodalasa, konnotativ qatlam uning subyektiv va madaniy qiymatini ochib beradi [4].

Konnotatsiya terminining yuzaga kelishi bo'yicha turli olimlar turlicha qarashlarni bildiradi. Jumladan, L. B. Kropotova konnotatsiya so'zi taxminan 1200-yilda paydo bo'lganligini ta'kidlab, bu terminning lotincha "connotatre" so'zidan olinganligini va "birgalikda", "bilmoq" ma'nolarini ifodalashini hamda sxolastik mantiqdan kelib chiqqan so'zlarning ma'nosi haqidagi falsafiy va teologik munozaralardan foydalanilganligini aytib o'tgan.[5] Boshqa tilchilar guruhi esa "Konnotatsiya" so'zining kelib chiqishini XVI asrga to'g'ri kelishini aytadilar. Xususan konnotatsiya so'zining ta'rifi keltilgan ingliz etimologik lug'atida bu termin 1530-yillarda "Konnotatsiya" qo'shimcha ma'no bildiruvchi so'z sifatida qo'llanila boshlandi. Bu so'zning kelib chiqishi o'rta lotincha "com" (birgalikda)+ notare"(belgilash) so'zlaridan kelib chiqqanligini va bu atama mantiqiy termin sifatida "asosiy ma'noga qo'shimcha belgi qo'shish " ma'nosini bildirishi haqida yozilgan [5]. Ammo bu terminning qo'shimcha ma'no bildirish xususiyatini to'laqonli ochib berish XIX asrda ingliz tilshunosi James Millga nasib etgan. James Mill o'zining 1829-yilda chop etilgan Analysis of the Phenomena of the Human Mind asarida konnotatsiya va denotatsiya tushunchalarini "white horse" (oq ot) misolida tushuntirgan [7]. Misolda denotativ qatlam shunday: "horse" – otni, "white" – rangni bildiradi. Konnotativ qatlam esa so'zga qo'shimcha ma'no beradi; masalan, "white" so'zi ramziy jihatdan poklik, soflik, go'zallik, kuch-quvvat yoki jasorat ma'nolarini ifodalashi mumkin. Shu tariqa, Mill denotativ va konnotativ qatlamlarning alohida bo'lishi, lekin bir-biriga bog'liqligi orqali so'zning ta'sirchanligini oshirishini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida ham konnotativ ma'no va uning badiiy nutqda qo'llanishi haqida qimmatli ilmiy ishlar yaratilgan. Sh. Raxmatullayev (1982) o'zbek tilidagi so'zlarning denotativ va konnotativ qatlamlarini alohida ko'rib chiqadi. A. Madvaliyev (2010) o'zbek leksikologiyasida baholovchi birliklarning semantik imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi. S. Otamirzayeva (2005) badiiy matnlarda konnotativ birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etadi. U.Tursunov (1990) o'zbek tilining stilistik imkoniyatlarini ochib berishda konnotatsiyaning o'rnini haqida yozadi. N. Mahmudov (2012) konnotativ birliklarning nutqiy mahorat va ekspressivlikni ta'minlashini ta'kidlaydi. G'.Abdurahmonov (2008) esa umumiy tilshunoslik masalalarida konnotatsiyaning so'z ma'nosining qo'shimcha qatlami sifatida ko'rsatadi.

S.I. Apresyan (1974) – u konnotatsiyaning lingvistik qatlam bo'yicha tahlil qilgan va hissiy, baholovchi, stilistik, ramziy va madaniy turlarni ajratgan. U asosiy nazariy asoslarni yaratgan va so'zning konnotativ qatlamini strukturaviy jihatdan ko'rsatgan [6].

M.V. Suntsova (2021) – rus tilidagi konnotatsiyaning amaliy jihatdan tahlil qilib, Apresyan nazariyasini qo'llagan, turli turlarini real matn misollarida ko'rsatgan [8].

S.I. Apresyaning nazariyasiga ko'ra konnotatsiyaning guruhlanishi:

1. Emotsional (hissiy) konnotatsiya – his-tuyg'uni ifodalaydi

2. Ekspressiv (baholovchi) konnotatsiya – obrazlilik va ta'sirchanlik yaratadi.
3. Stilistik konnotatsiya – kitobiy, og'zaki yoki rasmiy qatlamni belgilaydi.
4. Ramziy (symvolic) konnotatsiya – ramziylikni ifodalaydi.
5. Madaniy konnotatsiya – xalqning urf-odati va tarixiy tajribasini ifodalaydi.

Ularni hozir har bir turini ko'rib, izohlab misollar yordamida tahlilga tortib ko'ramiz.

Hissiy (emotsional) konnotatsiya so'z yoki ibora tinglovchi yoki o'quvchida ma'lum bir his-tuyg'u uyg'otadi; masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida "tog'lar qopqoniga o'xshash qorong'ulik" ifodasi qorong'ilik bilan qo'rquv va xavotir hissini uyg'otadi.

Baholovchi (evaluative) konnotatsiya esa so'zga ijobiy yoki salbiy baho beradi; Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida "mardlik" qahramonning ijobiy xususiyatini, "hiyla" esa salbiy bahoni bildiradi.

Stilistik konnotatsiya so'zning badiiy yoki rasmiy kontekstga mos keladigan uslub orqali ma'nosini boyitadi; masalan, Hamid Olimjon she'riyati: "gul" so'zi badiiy uslubda go'zallik va muloyimlik ramzi sifatida ishlatiladi.

Ramziy (symvolic) konnotatsiya so'z madaniy yoki tarixiy ramz sifatida qo'shimcha qatlam oladi; Erkin Vohidov she'riyatida "oq qush" ramzi erkinlik va poklikni ifodalaydi.

Madaniy (cultural) konnotatsiya so'zning madaniyatga bog'liq holda o'ziga xos ma'no qatlamini olishini bildiradi; Abdulla Qahhorning "Oltin devor" asarida "samoviy yulduz" faqat astronomik jismlarni emas, balki o'zbek xalqining qadriyatlari va orzularini ifodalaydi. Shu tarzda, konnotatsiya turlari so'zning lingvistik va madaniy qatlamlarini birgalikda o'rganish imkonini beradi va o'zbek adabiyotida keng qo'llanilgan.

Xulosa. Konnotatsiya lingvistik tadqiqotlarda so'zning chuqur semantik qatlamini ochib beradigan muhim hodisadir. U nafaqat so'zning denotativ ma'nosini boyitadi, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va estetik qadriyatlarni ham aks ettiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konnotatsiyaning turli ko'rinishlari so'zning ta'sirchanligini oshiradi va matnga qo'shimcha ma'no beradi. O'zbek tilshunosligida ham konnotatsiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u badiiy nutqning obrazlilik va ifodaviyligini ta'minlaydi. Shu bois, konnotatsiya bo'yicha olib boriladigan keyingi tadqiqotlar semantika, pragmatika va lingvokulturologiya kesishgan nuqtalarda yanada samarali natijalar berishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yakobson, R. (1960). Closing Statement: Linguistics and Poetics. In T.A. Sebeok (Ed.), *Style in Language* (pp. 350–377). MIT Press.
2. Gak, V. (1986). *Semantika i struktura yazyka*. Moskva: Nauka.
3. Vinogradov, V. V. (1977). *Izbrannyye trudy: Leksikologiya i leksikografiya*. Moskva: Nauka.

4. Crystal, D. (2008). A dictionary of linguistics and phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell.
5. Кропотова Л.В. История развития лексической коннотации //Язык и культура. 2010. № 1. С.33–47
6. Apresyan, S.I. (1974). Connotation as a structural element of lexical meaning
7. Suntsova, M.V. (2021). Connotative meaning in Russian language.
8. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1948.
9. Cho'lpon. Kecha va kunduz. Toshkent: Akademnashr, 1935.
10. Hamid Olimjon. She'rlar to'plami. Toshkent: Sharq, 1957
11. Erkin Vohidov. Tanlangan she'rlar. Toshkent: Sharq, 1979.
12. Abdulla Qahhor. Oltin devor. Toshkent: Fan, 1965.